

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD. 03/04.06.2020.Ped 70.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

TIRKASHOV MUXIDDIN SAFAROVICH

**INTEGRATIV TAHLILYI YONDASHUV ASOSIDA EMPIRIK
TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika
fanlari)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Qarshi–2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy(PhD)

Tirkashov Muxiddin Safarovich

Integrativ tahliliy yondashuv asosida empirik tushunchalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish

Тиркашов Мухиддин Сафарович

Совершенствование методики формирования эмпирических понятий на основе интегративно-аналитического подхода

Tirkashov Mukhiddin Safarovich

Improving the methods of forming empirical concepts on the basis of the integrative-analytical approach

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD. 03/04.06.2020.Ped 70.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

TIRKASHOV MUXIDDIN SAFAROVICH

**INTEGRATIV TAHLILY YONDASHUV ASOSIDA EMPIRIK
TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02–Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika
fanlari)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Qarshi–2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PHD/Ped5173 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nurullayeva Shaxlo Uktamovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Chorshanbiyev Zafar Esonpo‘latovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Shaxmurodova Diljahon Almardonovna
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Diccertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/04.06.2021.Ped.70.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil “-----” ----- soat ----- dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy). (Tel.: (0375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz). Qarshi davlat universiteti, Pedagogika fakulteti binosi, 214-xona.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (856 raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 180103, Qarshi shahri, ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Tel.: (0375) 225-34-13, faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “---” ----- kuni tarqatildi
(2025 yil “___” _____ da _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

R.D. Shodiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

I.B. Kamolov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.d. (DSc), professor

N.X.Oripova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o‘rinbosari, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kechayotgan globallashtirish va axborotlashuv jarayoni jamiyat taraqqiyotiga o'z ta'sirini o'tkazib kelmoqda. O'z navbatida jamiyat taraqqiyoti ta'lim tizimini rivojlantirish ehtiyojini yuzaga keltirib, bugungi kunda o'quvchilarni faqat nazariy bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish davr talabiga javob bermasligini ko'rsatmoqda. Ta'lim jarayoniga faoliyatli yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv hamda rivollantiruvchi ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim paradigmalarida asosiy e'tibor o'quvchilarga empirik bilish shakllari va usullarini o'rgatish orqali bilim berishga qaratilmoqda.

Dunyo mamlakatlarida amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi rivojlanish tendensiyalarida jamiyatda amalga oshayotgan o'zgarishlar, ta'lim tizimi strategiyasidagi, pedagogik paradigmalaridagi yangilanishlar yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bir qancha rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida keng joriy etilgan STEAM va STEM ta'limi yutuqlari zamonaviy ta'lim modellarida o'z ifodasini topmoqda. Inson va uni o'rab turgan tabiiy hamda ijtimoiy muhit o'rtasidagi aloqadorlik meyorlari, shakllari, ularni o'rganish uslublarini o'rganishning yangi aksiologik usullarini talab qilmoqda. Asosiy maqsad - ta'lim-tarbiya jarayonida tashqi olamni tabiiy-ijtimoiy hamda ma'naviyat nuqtai nazaridan tahlil qila bilish, ushbu jarayonlarda o'z o'rnini, ta'siri va mas'uliyati mazmunini ochib berishdan iboratdir.

Mamlakatimizda ham o'quvchilarda tabiiy va ijtimoiy hodisalarni yaxlit tizim sifatida tahlil qila bilish ko'nikmalarini shakllantirishga, muammolarga tahliliy yondashuv malakalarini tarkib toptirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Jumladan, boshlang'ich ta'lim darsliklarini modernizatsiya qilish asosida bir nechta fanlarni optimallashtirgan holda o'qitilishi, dunyo mamlakatlari tajribalaridan kelib chiqqan holda integrativ yondashuv asosidagi maktab darsliklarining ishlab chiqilishi ushbu yo'nalishdagi vazifalarni amalga oshirishda muhim qadam bo'ldi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda "Maktab – bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi... ta'lim-tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish, o'qitish metodlari, ta'lim standartlari, darslik va o'quv qo'llanmalarini yangilash zarurligi, bilim berishda ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish, tarbiyada esa milliy an'ana va qadriyatlarga suyanish muhim"ligi¹ dasturlamal sifatida belgilab olindi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarni atrof olamni empirik tadqiqotlar asosida o'rganishga tayyorlash muhim sohalardan biri hisoblanadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 23 avgust kuni xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida so'zlagan nutqi // <https://uza.uz/uz/posts/maktab-talimini-rivozhlantirish-umumkhal-arakatiga-aylanishi-23-08-2019>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019 yil 29 appeldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022 yil 11 maydagi PF-134-son “2022-2026 yillarda xalq ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” fapmonlari, 2019 yil 30 sentabrdagi PQ-4467-son “Xalq ta‘limi tizimidagi maktabdan tashqari ta‘lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi VMQ-187-son “Umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standartini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019 yil 31 dekabrdagi VMQ-1059-son “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020 yil 14 dekabrdagi VMQ-781 son “2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tadqiqotning asosiy masalasi bo‘lgan integrativ tahliliy yondashuv hamda empirik tushunchalar muammolari psixologik va pedagogik tadqiqotlarda turlicha talqin qilingan. Ushbu muammoga Sharq ma‘naviy merosida ham katta e‘tibor qaratilgan bo‘lib, mutafakkirlarimiz Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sinolar dunyoni bilish usuli sifatida empirik jarayonlarga to‘xtalib o‘tishgan. Tabiiy fanlarni, jumladan fizik tushunchalarni o‘qitishda empirik bilish usullaridan foydalanish yo‘llari xususida D.Shodiyev, bo‘lajak o‘qituvchilarni metodik tayyorlashda empirik tushunchalarni tizimlashtirish borasida S.Qahhorov, Q.Tursunov, H.Jo‘rayev, G.Karlibayevalar izlanish olib borganlar. Axborot tahliliy yondashuv muammosi U.Yoziyeva tadqiqotida, o‘quvchilarni tabiatga munosabati masalari J.Tolipova, M.Umarovalar tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘quv-biluv faoliyati muammosi ustida B.Adizov, R.Safarova, A.Hamroyevlar izlanishlar olib borganlar.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan M.V.Zvereva, A.I.Sorokina (ilmiy tushunchalarni shakllantirishning empirik nazariyasi tarafdorlari), V.V. Davidov, D.B. Elkonin, P.Y. Galperin (ilmiy tushunchalarni o‘zlashtirishning empirik nazariyasi), SP.Baranov, I.F.Svadkovskiy, A.V.Alekseyeva (empirik materialni o‘rganishda hissiy bilishning o‘rni), L.S.Vigotskiy (intellektual amallarning shakllanishi va rivojlanishi nazariyasi), G.I.Ruzavin (empirik tushunchalarning paydo bo‘lishi), A.N.Vasilyeva,

N.I.Lifinseva, V.P.Strezikozin tadqiqot muammosining ayrim jihatlari (tabiiy fanlarni o'qitish davomida o'quvchilarda tafakkur operatsiyalarini rivojlantirish) ustida izlanishlar olib borganlar.

Xorijiy mamlakatlar olimlari tomonidan ham tadqiqotimiz uchun tanlangan muammoning ayrim jihatlari tadqiq etilgan. Jumladan, empirizm oqimining nazariy asoslari (F.Bekon, T.Gobbs, J.Lokk, J.Dyui), empirizmning falsafiy jihatlari (I.Kant), ilmiy tushunchalarning xususiyatlarini tahlil qilish va semantik maydonni qurish (B. Oyuumchimeg) psixologik tushunchalarni uch bosqichli tavsiflash (V.A. Ganzen) kabi muammolar tadqiq etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirish texnologiyasi va metodikasini ishlab chiqish" amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Integrativ tahliliy yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida empirik tushunchalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ta'lim jarayoniga integrativ tahliliy yondashuvni amalga oshirish hamda o'quvchilarda empirik tushunchalarni shakllantirish muammolariga doir nazariy qarashlarni tahlil qilish;

nazariy tahlillar asosida empirik tushunchalar va empirik tadqiqot metodlari mazmunini ochib berish;

boshlang'ich ta'lim jarayoniga integrativ tahliliy yondashuv asosida o'quvchilarda empirik tushunchalarni shakllantirish jarayonining tizimli-funksional modeli va metodikasini takomillashtirish;

pedagogik eksperiment davomida tadqiqot davomida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalarning samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida integrativ tahliliy yondashuv asosida empirik tushunchalarni shakllantirish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti. Boshlang'ich ta'lim jarayoniga integrativ tahliliy yondashuv asosida empirik tushunchalarni shakllantirishga doir tashkiliy shakllar, metod va vositalardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Nazariy va qiyosiy tahlil, induktiv va deduktiv xulosalash, modellashtirish, umumlashtirish, taqqoslash, pedagogik eksperiment, o'quvchilarda empirik tushunchalarning shakllanganlik darajalarini aniqlash diagnostik metodlari, matematik staistik tahlil.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Integrativ tahliliy yondashuv asosida empirik tushunchalarni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari aniq bilish obektiga yo'naltirilgan pragmatik aspektlarning axborotlarni to'g'ri tanlay olish bo'yicha ko'nikmalarini rivojlantirish hamda tizimli tahlil qilish, qayta ishlash, tizimlashtirishning optimal metodlarini tanlash imkonini beruvchi didaktik jarayonning tashkiliy komponentlariga ko'ra aniqlashtirilgan;

integrativ tahliliy yondashuv asosida empirik tushunchalarni shakllantirish modeli empirik tushunchalarning assotsiativ, kolleksion, zanjirli, psevdotushunchalar kabi turlarining mantiqiy mazmuni muhim va muhim bo'lmagan xususiyatlarni verballashtirish hamda ma'no va bog'lanishlarni anglash va adekvat mulohazalarning paydo bo'lish bosqichlarini tahliliy aniqlashtirish asosida takomillashtirilgan;

integrativ-tahliliy yondashuv asosida empirik tushunchalarni shakllantirish modeli tashkiliy va tajriba bosqichlarida amalga oshiriladigan mashg'ulotlarning pedagogik ta'minotini "Quvnoq tadqiqotchi" integratsion dasturi mazmuniga singdirish hamda eksperiment o'tkazishga doir virtual va real ta'lim vositalarining didaktik yaxlitligini ta'minlash va metodik infratuzilma elementlarini ta'limiy mapqsadga mos tasniflash asosida takomillashtirilgan;

integrativ-tahliliy yondashuv asosida empirik tushunchalarni shakllantirish samaradorligi integrativ o'qitish jarayoniga individuallik, tabiat bilan bog'liqlik, tadqiqiylik tamoyillarining tashkiliy-funksional mazmanini aniqlash hamda tayyorlangan topshiriqlar tizimini tatbiq etish, muammo yechimiga diqqatni qaratish, tadqiqot usullarini o'zlashtirish, empirik tushunchalarning tarkib topganligini aniqlash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

boshlang'ich sinf o'quvchilarida integrativ tahliliy yondashuv asosida empirik tushunchalarni shakllantirish jarayonining takomillashtirilgan modeli takomillashtirilgan;

boshlang'ich ta'lim jarayonidagi integrativ mashg'ulotlar davomida o'quvchilar empirik tushunchalarini shakllantirishda empirik tadqiqotlar metodikalaridan foydalanishga doir tavsiyalar ishlab chiqildi;

boshlang'ich ta'lim jarayonida integrativ-tahliliy yondashuv asosida o'quvchilar empirik tushunchalarini shakllantirishga doir "Quvnoq tadqiqotchi" integrativ dasturi ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi boshlang'ich sinf o'quvchilarida empirik tushunchalarni shakllantirish jarayoniga integrativ tahliliy yondashuv muammosining metodologik, nazariy va metodik tahliliga tizimli yondashilganligi, ilg'or xorijiy va milliy tajribalardan samarali foydalanilganligi hamda uchta viloyat umumiy o'rta ta'lim maktablarida olib borilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ta'lim jarayoniga integrativ tahliliy yondashuv, empirik tushunchalar, empirik tadqiqot metodlari ka muammolarga oid qarashlarning tizimlashtirilganligi, empirik tadqiqotlarni tashkil etishga doir pedagog olimlar qarashlarining tizimli tahlili, boshlang'ich ta'lim jarayonida tashkil etiladigan integratsion mashg'ulotlarni tashkil etishga doir o'qituvchilar pedagogik tayyorgarligini amalga oshirish tizimi asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati boshlang'ich ta'lim jarayonida integratsion mashg'ulotlarni tashkil etish, empirik tushunchalarni shakllantirishda empirik integratsion topshiriqlardan foydalanish, tadqiqot davomida ishlab

chiqilgan metodikani amaliyotga tatbiq etishga doir metodik taklif va tavsiyalarning ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Integrativ-tahliliy yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida empirik tushunchalarni shakllantirishga doir olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

integrativ-tahliliy yondashuv asosida empirik tushunchalarni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari aniq bilish obektiga yo'naltirilgan pragmatik aspektlarning axborotlarni to'g'ri tanlay olish bo'yicha ko'nikmalarini rivojlantirish hamda tizimli tahlil qilish, qayta ishlash, tizimlashtirishning optimal metodlarini tanlash imkonini beruvchi didaktik jarayonning tashkiliy komponentlariga ko'ra aniqlashtirilganligiga doir xulosalardan 2020 yilda bajarilgan AIF-2/17 "O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonini tashkil etishda yangi texnologiyalar" amaliy loyihada foydalanilgan (Qarshi davlat universiteti O'quv ishlari bo'yicha prorektor tomonidan tasdiqlangan ma'lumotnoma № 03/53). Natijada, OTMda ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish jarayoni tizimli tashkil etilishiga erishilgan;

integrativ tahliliy yondashuv asosida empirik tushunchalarni shakllantirish modeli empirik tushunchalarning assotsiativ, kolleksion, zanjirli, psevdotushunchalar kabi turlarining mantiqiy mazmuni muhim va muhim bo'lmagan xususiyatlarni verballashtirish hamda ma'no va bog'lanishlarni anglash va adekvat mulohazalarning paydo bo'lish bosqichlarini tahliliy aniqlashtirish asosida takomillashtirilganligiga doir ma'lumotlardan "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, integratsiyasi va innovatsiyasi" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (OO'MTVning 2024-yil 04-martdagi 55-son buyrug'i bilan tasdiqlangan 55103-sonli nashr guvohnomasi). Natijada, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida integrativ yondashuv asosida empirik tushunchalarni tizimli shakllantirishga doir ko'nikmalar tarkib toptirilishiga xizmat qilgan;

integrativ-tahliliy yondashuv asosida empirik tushunchalarni shakllantirish modeli tashkiliy va tajriba bosqichlarida amalga oshiriladigan mashg'ulotlarning pedagogik ta'minotini "Quvnoq tadqiqotchi" integratsion dasturi mazmuniga singdirish hamda eksperiment o'tkazishga doir virtual va real ta'lim vositalarining didaktik yaxlitligini ta'minlash va metodik infratuzilma elementlarini ta'limiy mapqsadga mos tasniflash asosida takomillashtirilganligiga doir ma'lumotlardan "Ona tili o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanmasini tayyorlashda foydalanilgan (OO'MTVning 2023-yil 25-avgustdagi 391-son buyrug'i bilan tasdiqlangan 391201-sonli nashr guvohnomasi). Natijada, boshlang'ich sinf ona tili darslari metodik ta'minoti takomillashuviga xizmat qilgan;

integrativ-tahliliy yondashuv asosida empirik tushunchalarni shakllantirish samaradorligi integrativ o'qitish jarayoniga individuallik, tabiat bilan bog'liqlik, tadqiqiylik tamoyillarining tashkiliy-funksional mazmanini aniqlash hamda tayyorlangan topshiriqlar tizimini tatbiq etish, muammo yechimiga diqqatni qaratish, tadqiqot usullarini o'zlashtirish, empirik tushunchalarning tarkib topganligini aniqlash asosida takomillashtirilganligiga oid tavsiyalardan

Qashqadaryo, Jizzax, Surxondaryo viloyatlaridagi umumiy oʻrta taʼlim maktablarida oʻtkazilgan pedagogik eksperiment davomida amaliyotga joriy etishda foydalanilgan. (Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab taʼlim vazirligi huzuridagi Respublika taʼlim markazining 2023 yil 22 iyundagi 01/11-1-562-son maʼlumotnomasi). Natijada, umumiy oʻrta taʼlim maktablarida taʼlim-tarbiya jarayonida empirik tushunchalarni shakllantirishda koʻnikmalarni tashkil etishga oid bilim, koʻnikma va malakalarini rivojlantirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan oʻtkazildi.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 15 ta ilmiy, ilmiy-usuliy ishlar chop etilgan, shulardan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy, 6 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 134 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot muammosining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, shuningdek, tadqiqot ishi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan hamda tadqiqotning amaliy natijalari, ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan, metodologik asosi hamda tadqiqot natijalarining ommalashtirilganligi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Integrativ yondashuv asosida boshlangʻich sinf oʻquvchilarida tushunchalarni shakllantirish muammosining nazariy tadqiqi”** deb nomlangan boʻlib, ushbu bobda psixologik-pedagogik tadqiqotlarda tushunchalarni integrativ tahliliy yondashuv orqali shakllantirishning nazariy aspektlari tahlil qilingan, rivojlantiruvchi taʼlim nazariyasini integrativ tahliliy yondashuvning metodik asosi sifatida oʻrganilgan, boshlangʻich taʼlim jarayonida oʻquvchilar oʻzlashtiradigan tushunchalar tizimi keltirib oʻtilgan.

Tushunchalarni shakllantirish masalasi ular orqali fikrlashni oʻrgatishda anʼanaviy usul hisoblanadi. Buning sababi shundaki, tushuncha insonning intellektual faoliyatiga xos boʻlgan kognitiv shakllardan biri boʻlib, u koʻpincha voqelikning, tushunchalarda aksi sifatida belgilanadi. Soʻnggi vaqtlarda tushunchalarni ikki toifaga ajratish qabul qilingan: aniq mazmun va keskin hajmga ega boʻlgan qatʼiy tushunchalar va aniq mazmun hamda keskin hajmga ega boʻlmagan qatʼiy boʻlmagan tushunchalar.

Tushuncha: tafakkurning mantiqiy shakli; bilim oʻlchovi; ogʻzaki belgi maʼnosini anglash taʼsiri; nazariy tafakkur elementi; tezkor taʼlim sifatida qarash

mumkin. Uning eng keng tarqalgan ta'rifi fikrlash shakli sifatida bo'lib, u obyektlar va hodisalarning muhim belgilarini aks ettiradi.

Tushunchalar ichki tuzilmasi "vertikal" va "gorizontal" turlarga bo'linadi. Bunday tushunchalar bir qancha darajadagi umumiy xususiyatlarni qamrab oladi. Bu to'plam majoziy, ramziy va belgilar shaklida ko'rsatilishi mumkin. Shunday qilib, tushunchalar bilan ishlaganda, "tasvir - ramz - belgi" ko'rinishidagi murakkab tizim bilan ishlaymiz.

Tushunchani xususiyatlar to'plami sifatida ta'riflash mumkin. Qat'iy bo'lmagan tushunchalar uchun bu xususiyatlar to'plami noaniq tuzilmaga ega. Turli mazmundagi tushunchalar o'ziga xos xususiyat ko'rsatkichlariga ko'ra tavsiflanadi. Ushbu muammo yuzasidan izlanishlar olib borgan tadqiqotchilar tushunchalarga ta'rif berishda o'ziga xos yondashganlar. Ushbu to'plamlar tushunchalarning ta'riflarini yaratadi. Har bir ta'rif tarkibi, mazmuni, hajmi, mantiqiy va semantik tuzilishi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Bu ta'riflarda tushunchaning shakllanish darajasi uning tuzilishi aks ettirilgan. Qat'iy bo'lmagan ilmiy tushunchalarning ta'riflari juda ko'p va ular asosan to'liq emas. Bilish jarayonida ba'zi ta'riflar to'liq bo'lishi mumkin, boshqa birlari esa to'liq bo'lmagan holda o'z kuchini yo'qotishi mumkin. Tushunchalar o'rganish jarayonida shakllanib borgani holda aynan ularning ta'riflari tushunchani shakllanishining asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi.

Tushunchalarning ushbu majmualari obyektiv belgilariga ko'ra to'rt turga bo'linadi:

assotsiativ - har qanday tashqi ko'rinishdagi bog'lanish obyektlarini bir sinfga tasniflash uchun yetarli asos sifatida olinadi;

kolleksion - ma'lum bir funksional xususiyat asosida obyektlarning o'zaro to'ldirilishi va assotsiatsiyasi;

zanjirli - o'tish bir atributdan ikkinchisiga shunday assotsiatsiyalanadiki, unda ba'zi obyektlar boshqalari asosida, boshqalari esa - butunlay boshqa belgilar bo'yicha birlashtiriladi va ularning barchasi bir guruhga xosdir;

psevdotushunchalar - tashqi tomondan - tushuncha, ichki tomondan - majmuaviy.

Kichik yoshdagi o'quvchilarda tushunchalarni shakllantirish jarayoniga qo'yiladigan mantiqiy-psixologik talablarni batafsil bayon qilingan:

mazmunni qurish usuli - umumiydan xususiya, nazariy bilimlarning kelib chiqish jarayonini ochib berish;

dastlab mazmunli umumiy yo'lni o'zlashtirishga imkon beradigan o'quv vazifalari tizimi yordamida uni joriy etish metodi, keyinchalik har bir aniq vazifaga yondashuvdan foydalanish;

bolalar ishining guruh shakli, bu maxsus taqsimlangan pozitsion o'zaro ta'sir orqali tushunchalar nomutanosibligini kuchaytiradi.

Empirik materialning oddiy miqdoriy to'planishi bolaning idrokida hissiy idrokdan mavhumlikka aylangan holda o'tishni ta'minlash imkoniyatini bermasligi ta'kidlanib, hissiy tasvirlarni tizimlashtirish zarurligini qayd etib, bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilariga tushunchalarda aks ettirilgan voqelikning yon

tomonlarini tasavvur qilish imkonini beradi.

Integrativ yondashuv o'quvchiga aniq bilish obyektiga yo'naltirilgan faoliyatda turli sohalaridagi ilmiy manbalar, axborotlar olamidan axborotlarni integratsiyalangan holda to'g'ri tanlay olish, tizimli tahlil qilish, qayta ishlash, tizimlashtirishning optimal metodlarini tanlash imkonini beruvchi anglash hamda pragmatik jihatlari bilan tavsiflanuvchi yondashuvdir.

Amaliy vazifa, asosan, o'quv-tadqiqot muammolarini hal qilish jarayonida o'ziga xos xususiyatni yo'qotadi. Integrativ tahliliy yondashuvni to'g'ri amalga oshirilganlik mezonini uning natijalarining ilgari tuzilgan modellardan biri bilan mos kelishidir. Undan chetga chiqish o'tkazilgan axborot-tahlilni salbiy baholash va uning usullarining muammoning haqiqiy shartlariga mos kelishi uchun asos bo'ladi. Harakatning intellektual rejasini ishlab chiqishda bunday baholash axborot-tahlilning taxminiy natijalari asosida amalga oshiriladi. Uning salbiy tavsifi mavjud vaziyat qo'shimcha tahlil va uning usullarini aniqlashtirishni talab qilishidan dalolat beradi. Shunday qilib, o'quvchi o'quv faoliyatining yangi darajasiga o'tishni ko'rsatadigan yangi vazifani o'zida shakllantiradi.

Ilmiy bilish mantiqiy fikrlash va xulosa chiqarish, matematik hisob-kitoblarga asoslanib amalga oshiriladi. Empirik bilish esa bevosita o'rganilayotgan obyektning sezgi organlari orqali his etish asosida kechadi. Har ikkala bilish jarayoni ayrim jihatlarga ko'ra farqlansada, ular o'zaro bir-biri bilan bog'liq va zamonaviy fanda bir-birini to'ldirib boradi.

Empirik bilish real obyektlar, hodisa va jarayonlarni bevosita o'rganish (tadqiq etish)ga asoslangan bilish jarayoni bo'lib, bunday bilish jarayonida o'rganilayotgan obyektga sezgilar orqali ta'sir asosiy o'rinni egallaydi. Ya'ni o'rganilayotgan obyektga sezgi organlari orqali ta'sir o'tkazish asosida idrok etilgan ma'lumotlar tafakkur orqali qayta ishlanadi.

Empirik tushunchalar tashqi olam haqidagi ma'lumotlarning kuzatish, tajriba o'tkazish, tahlil qilish, taqqoslash asosida umumlashtirilgan ramziy ifodasidir.

Empirizm – falsafaning amaliyotga asoslanuvchi oqimi bo'lib, uning asoschilari va vakillari bilishning asosida tajriba yotadi deb hisoblaydilar. Ularning fikricha bilim tajriba natijasida olinadi va tajribaning muvaffaqiyati bilan bilimning kuchi belgilanadi.

Empirizm oqimining asoschisi Frensis Bekon bo'lib, XVII asrda angliyada, keyinchalik esa Amerikada keng rivojlangan. Ushbu oqimning yetakchi vakillari Tomas Gobbs, Djon Lokk, Djon Dyui kabilar hisoblanadi. Falsafadagi empirik bilish persepsiyaga asoslanadi. Persepsiya – bu subyektning o'zini qurshab turgan olamdagi narsa va hodisalarni sezgilar yordamida bilish jarayoniir.

Empirik bilish davomida quyidagi aqliy faoliyat turlari amalga oshiriladi: obekt haqida ma'lumotlarni to'plash va dastlabki umumlashmalar qilish; obekt umumiy tavsifini tuzish; kuzatishlar asosida ma'lumotlarni to'plash; ma'lumotlarni tizimlashtirish va tasniflash.

Gnoseologiyada empirik bilish darajasi alohida yo'nalish sifatida XVII - XVIII asrlarda yuzaga keldi. Ushbu yo'nalish tarafdorlari haqiqiy bilim faqatgina

hissiy bilish va tajriba asosidagina yuzaga kelishini qayd etadilar. YA'ni tadqiq etilayotgan obyekt haqida eksperiment o'tkazish va kuzatish asosida ma'lumot to'plashni nazarda tutadi. Bunda inson sezgi organlari ishtirokida kuzatadi, o'rganadi, qiyosiy tahlil qiladi hamda turli o'lchovlar amalga oshiriladi. Bundan tashqari empirik bilish jarayonida empirik qonuniyatlar ham aniqlanadi. YA'ni nazariy jihatdan asoslanmagan, ammo eksperimental jihatdan mavjudligi isbotlangan qonuniyatlar aniqlashtiriladi.

Beruniyning ilmiy merosida tabiatni o'rganish va bilishning ilmiy metodiga ham katta o'rin ajratilgan. Beruniy ilmiy metodining xarakterli xususiyatlari obektivlik va oqilona yondashuv, kuzatish, tajribalar, og'zaki va yozma yodgorliklarni o'rganish, dalillarga tanqidiy yondashuv, ularni aqliy xulosalar shaklida mantiqiy umumlashtirish va haqiqatni aniqlash maqsadida qiyoslashdan iboratdir.

Empirik tadqiqot metodlari quyidagilardan iborat: **kuzatish; taqqoslash; eksperiment; o'lchash.**

Empirik bilimlar real obyektlar haqidagi empirik ma'lumotlar hisoblanadi. Empirik bilimlar hissiy bilishga asoslanadi. Har qanday nazariyada nazariy va empirik tushunchalar uning asosiy mantiqiy birliklari hisoblanadi. Nazariy va empirik tadqiqotlar, nazariy va empirik bilish, nazariy va empirik tushunchalar fanning hamda ilmiy tadqiqotlarning asosiy ikki "qanoti" hisoblanadi.

Bilimning empirik darajasi kuzatish, taqqoslash, tajriba, o'lchash kabi elementlardan iborat.

Kuzatish – obyektlarni maqsadli va rejali tarzda o'rganish bo'lib, u asosan kuzatilayotgan obyektning shaxsning sezgi organlari orqali his qilishi, idrok etishi, tasvirlash kabi hissiy jarayonlarga asoslanadi. Kuzatuv natijasida o'rganiilayotgan obyektning tashqi ko'rinishi, xususiyatlari va harakati haqida bilimga ega bo'lamiz. Empirik tajriba davomida qo'llaniladigan ilmiy kuzatish maqsadli ravishda aniq bir tizimga tayangan holda va faol amalga oshiriladi. Ilmiy kuzatishlar obyektning tavsiflash imkonini beradi. Empirik tavsif kuzatilgan obyektlar haqidagi ma'lumotlarni umumlashtirish hamda ta'riflashdan iborat bo'ladi. Ta'rif yordamida sensorli ya'ni his etish natijasida olingan ma'lumotlar tushunchalar, belgilar, diagrammalar, chizmalar, grafiklar va raqamlar shakliga aylantiriladi va shu bilan keyingi oqilona qayta ishlash uchun qulay shaklga keltiriladi.

Taqqoslash obyektlarning o'xshashliklari va farqlarini, ularning xususiyatlarini aniqlashni o'z ichiga oladi, hislar dalillaiga asoslanadi va o'xshash xususiyatlarga ega sinflar va to'plamlarni farqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Taqqoslash fanda yuqori baholangan, qiyosiy anatomiya, qiyosiy tilshunoslik, qiyosiy paleontologiya va boshqalar mavjudligi bejiz emas. Taqqoslash dunyoning dastlabki xilma-xilligi haqida xulosa chiqarishga olib keladi.

Eksperiment – tadqiqotchi tomonidan maxsus yaratilgan va aniq belgilangan va nazorat qilinadigan sharoitlarda joylashgan obyekt haqidagi ma'lumotlarni maqsadli, aniq ifodalangan faol o'rganish va qayd etishdan iborat jarayondir.

Ekspiriment – bu ilmiy tadqiqot uchun shart-sharoitlarni sun'iy ravishda yaratish, tadqiqotchi tomonidan taklif qilingan dastur bo'yicha tuzilgan maqsadli tajribadir. Tajribaning asosi qurilma hisoblanadi. Tajribaning maqsadi obyektning ma'lum bir yangi shart-sharoitdagi muhim xususiyatlarini ochib berishdan iboratdir. Tajriba tayyorgarlik, asosiy va xulosalash qismlaridan iborat. Tajribaning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: a) tajriba va nazorat obykti; b) tajriba o'tkazish uchun muayyan fazo-vaqt maydoni (real yoki tasavvurda bo'lishi mumkin); v) eksperiment gipotezasiga muvofiq obyektning o'zidan tashqari qurilmalar, kimyoviy reaksiyalar uchun katalizatorlar, energiya manbalari va boshqalar kabi komponentlardan iborat vositalar; g) tajriba g'oyasi va rejasi; d) tajriba davomida ma'lumotlarni aniqlash va tahlil qilishga doir metodikalar.

Tabiiy-ilmiy va pedagogik tadqiqotlarda eksperiment alohida o'rin tutadi. Birinchidan, eksperiment ilmiy tadqiqotning empirik va nazariy bosqichlari va darajalari o'rtasida bog'lovchi bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, eksperiment bir vaqtning o'zida ham kognitiv, ham amaliy faoliyatga tegishli: uning maqsadi bilimni oshirishdir, lekin u sinovdan o'tgan bo'lsa ham va ma'lum bir tajribaning maydoni va mazmuni bilan cheklangan bo'lsa ham, atrofdagi voqelikni o'zgartirish bilan bog'liq.


Uchinchidan, empirik tajribalar maxsus asboblardan foydalanish bilan bog'liq.

Empirik bilish jarayonida dialektik tamoyil, tarixiylik tamoyili, amaliyot bilan bog'liqlik tamoyili, obyektivlik tamoyili, ijodiy yondashuv tamoyili, haqiqatning aniqlik tamoyillarga amal qilinadi.

Dissertatsiyaning **“Boshlang'ich ta'lim jarayoniga integrativ-tahliliy yondashuvni amalga oshirish orqali o'quvchilarda empirik tushunchalarni shakllantirish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida integrativ tahliliy yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida empirik tushunchalarni shakllantirishning tizimli-funksional modeli va metodikasi, integrativ axborot-tahliliy topshiriqlar asosida o'quvchilarda empirik tushunchalarni shakllanish yo'llari keltirib o'lingan.

Nazariy tahlillar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida empirik tushunchalarni shakllantirish jarayoni metodikasini ishlab chiqishga harakat qildik. Buning uchun esa jarayon haqida to'liq taassurot hosil qilish uchun axborot-tahliliy yondashuv asosida boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarda empirik tushunchalarni shakllantirish jarayonining takomillashtirilgan tizimli-funksional modeli ishlab chiqildi.

Mazkur modelning o'ziga xosligi boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'ziga xos eksperimentatorlik vazifalariga jalb etilishi, o'zlashtiriladigan tushunchalarning asosli bo'lishini ta'minlash hamda jarayonni tashkil etishda axborot-tahliliy hamda integrativ yondashuvning uyg'unlashuvida bo'ldi. Ya'ni o'quvchilar jalb etiladigan tadqiqotchilik faoliyatida tushunchalar tahliliy asosda o'zlashtirilishi, boshlang'ich ta'm o'quv predmetlari, ijtimoiy va tabiiy muhitning integratsiyalashuviga alohida e'tibor qaratildi.



1-rasm. Integrativ tahliliy asosda empirik tushunchalarni shakllantirish jarayonining tizimli funksional modeli.

Shu bilan birgalikda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda empirik tushunchalarni shakllantirish jarayoniga tayyorlashning **pedagogik yo'nalishlari xususida** to'xtalib o'tamiz. Bular:

ta'lim jarayoniga integrativ tahliliy yondashuvni amalga oshirishga doir nazariy va amaliy mashg'ulotlar hamda suhbatlarni tashkil etish;

o'qituvchilarga o'quvchilar bilan o'tkaziladigan eksperimentlar jarayoniga tayyorlashga doir metodik tavsiyalar berish;


tajriba-sinov ishlarini o'tkazish jarayoni va joyini to'g'ri tashkillashtirish;

o'quvchilarda shakllantiriladigan empirik tushunchalar tizimini ishlab chiqish;

integratsion empirik topshiriqlar tizimini ishlab chiqishga doir pedagogik talablar bilan tanishtirish;

o'quvchilar bilan o'tkaziladigan eksperimentlar davomida integrativ tahliliy yondashuv asosida fanlararo integratsiyani amalga oshirish hamda empirik tushunchalarni shakllantirishga erishish yo'llarini o'rgatish.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarda integrativ tahliliy yondashuv asosida empirik tushunchalarni shakllantirish tizimini tavsiflashda empirik tushunchalarni shakllantirish bosqichlariga tayandik. Ya'ni ta'lim jarayonida o'quvchilar empirik tushunchalarini shakllantirish jarayonini quyidagi to'rtta yo'nalishda amalga oshirishni nazarda tutdik:



2-rasm. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarda empirik tushunchalarni shakllantirish tizimi

Kuzatish metodini qo'llash davomida o'quvchilarda kuzatuvchanlik ko'nikmasi, ya'ni atrof-olamni diqqat bilan ko'ra olish, his etish, sezgirlik, tabiat hodisalarini anglash va tushuntirib bera olish ko'nikmalari tarkib topib boradi. Ushbu metod tabiiy hodisalar bilan bir qatorda ijtimoiy vaziyatni ham o'rganishning asosiy usuli bo'lib, uning yordamida kichik maktab yoshidagi o'quvchilariga keyinchalik bir muncha murakkabroq mazmundagi ilmiy tadqiqot ishlarini o'tkazish, tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Tayyorgarlik jarayonida kuzatuvchida mavjud tajribalar, nazariy bilimlarning mavjudligi kuzatishning to'g'ri tashkil etilishiga, kuzatuv jarayonida idrokning aniqligiga xizmat qiladi. YA'ni idrok jarayoni quyidagi qonuniyatlar asosida amalga oshiriladi:

tashqi olam real bo'lib u inson tomonidan kuzatuv jarayonida idrok etiladi va anglanadi;

inson tabiatning bir qismi sifatida u bilan chambarchas bog'liq va tabiat bilan bir butun yaxlitlikni tashkil etadi;

tabiat va undagi hodisalar muntazam o'zgarishda bo'lib turadi;

tabiatga insonning har qanday ta'siri yana o'ziga qaytadi: u ijobiy ta'sir bo'lsa, insonga yaxshilik bo'lib qaytadi, salbiy bo'lsa salbiy ta'sir bo'lib qaytadi.

Kuzatish metodi ekskursiya darslarida yoki darsning bir qismida ham o'tkazilishi mumkin. Ushbu metodning foydalanilishi va maqsadiga ko'ra tasniflanadi.

Eksperiment metodi – bu qandaydir bir maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan tajriba yoki ilmiy tajriba. Uning kechish jarayoni va natijasini muntazam kuzatib borish uchun maxsus shart-sharoitlar yaratiladi. Kuzatishdan farqli ravishda eksperiment nazariyaga asoslanadi, uni amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratiladi, tajriba jarayoniga faol ishtirok etiladi va olingan ma'lumotlar, natijalar tahlil qilib boriladi. Fanda eksperiment rejali amalga oshirilishi hamda hissiy-predmetli jarayon sifatida hamda avvaldan belgilangan gipotezani isbotlash usuli sifatida talqin etiladi.

Ta'lim jarayonidagi eksperiment ikki funksiyani bajaradi: namoyish etish va o'quvchilar o'quv-biluv faoliyatini oshirish.

Ta'limiy eksperiment – dars jarayonida o'qituvchi, laborant yoki biror o'quvchi tomonidan o'quvchilarga ma'lumotlarni yetkazish maqsadida qo'llaniladi. U o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishni oshiradi, ma'lum bir vazifalarni, topshiriqlarni ketma-ketlikda amalga oshirish, laboratoriya jihozlari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Eksperimentning ushbu turi bir qancha pedagogik talablar asosida tashkil etilishi lozim bo'ladi:

Natijalarni qayta ishlash metodlari. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarda empirik tushunchalarni shakllantirishning navbatdagi metodi natijalarni qayta ishlash metodlari hisoblanadi.

Natijalarni qayta ishlash metodlari sirasiga *natijalarni to'plash, tasniflash, taqqoslash, qismlarga ajratish, qismlardan butunni shakllantirish, xulosalash* kabi metodlar kiradi. Ushbu metodlar empirik tushunchalarni shakllantirishga doir o'quv topshiriqlari asosida amalga oshiriladi.

Qismlarga ajratish metodi analiz metodi nomi bilan qo'llanilib, ushbu metod tajriba davomida to'plangan ma'lumotlarni ma'lum bir birlikkacha qismlarga ajratishni nazarda tutadi. Ushbu jarayonda ma'lumotlar bo'laklarga bo'lib, har bir qismning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra tasniflash, taqqoslash asosida o'zlashtiriladi.

Xulosalash metodi kuzatish yoki tajriba davomida to'plangan barcha ma'lumotlar haqida umumiy xulosalar chiqarishga yordam beradi. Ma'lumotlarni

umumlashtirish jarayoni ma'lum bir prinsiplarga tayangan holda amalga oshiriladi: induktiv xulosalash; deduktiv xulosalash; umumlashtirish.

